



---

MARKAZIY OSIYO  
TARIXINING  
DOLZARB  
MUAMMOLARI  

---

VA  
TADQIQOTLAR  
ISTIQBOLI



10. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi [Matn]: metodik qo‘llanma / Zamonov A. Toshkent: “BAYOZ”, 2021. – 266 b.
11. To‘raev H. Buxoro tarixi [Matn] : o‘quv qo‘llanma / To‘rayev H. – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdoni nashriyoti, 2020. – 320 b.
12. Мусаев А. Б. Бухоро ва қозоқ хонлиги ўртасидаги муносабатларда Фарғона водийсининг ўрни (XVII асрнинг биринчи ярми) // Водийнома. 2021. №3 (22). – Б. 54-61.
13. Eshov B. J., Odilov A. A. O‘zbekiston tarixi II ( XIV asrning o‘rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha). – Toshkent: “DONISHMAND ZIYOSI”, 2020. – 409 b.
14. Audrey Burton. The Bukharans a dynastic, diplomatic and commercial history 1550 – 1702. – London: “Routledge”, 2019. – 713 p.
15. Sulaymonov B. Imomqulixon hukmronligi davrida buxoro xonligining tashqi-diplomatik aloqalari // Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. №3. 2025. – B. 156-159.
16. Ne‘matov M. Buxoroda Ashtarxoniyalar davri me‘morchiligi // Modern Science and Research. №10. 2024. – B. 34-37.
17. Dr. Azamat Ziyov. Silsilat as-salatin as a historical source // Asian Journal of Research in Socilan Sciences and Humanities. 2021. Issue 11. – P. 624-628.
18. Турайев Х. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сийосий ва маънавий-маданий ҳайотида жуйбор хожаларининг тутган урни. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2007. – 309 б.
19. Сангирова Д. Х. Хаж зийорати ва хукмдор хожилар // O‘tmishga nazar. 2019. №18. – B. 24-37.

## **ARXIV HUJJATLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA CHOY SAVDOSI XUSUSIDA**

**Alimova Raxima Ruskulovna,**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,*

*dotsent, tarix fanlari nomzodi,*

***Annotatsiya:** Mazkur maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligiga Xitoy va Hindistondan keltiriladigan choylar va chegara bojxonalari o‘tkazish punktlarida choydan olinadigan soliqlar tahliliga bag‘ishlangan. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlaridagi chet eldan choy keltiriladigan savdo yo‘llari, choy va uning xillari, narxlari, ko‘k choylarning navlari haqidagi ma‘lumotlar tahlil qilingan.*

**Kalit soʻzlar:** *Buxoro amirligi, choy, arxiv hujjatlari, Moliya Vazirligi, bojxona, savdo yoʻllari, boj soligʻi.*

**Abstract:** *This article is devoted to the analysis of tea imported from China and India to the Bukhara Emirate in the late 19<sup>th</sup> and early 20<sup>th</sup> centuries and the taxes levied on tea at border customs checkpoints. At the same time, information on trade routes for tea imported from abroad, tea and its varieties, prices, and varieties of green tea in the documents of the National Archive of Uzbekistan was analyzed.*

**Keywords:** *Bukhara Emirate, tea, archival documents, Ministry of Finance, customs, trade routes, customs duty.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена анализу чая, ввозимого в Бухарский эмират из Китая и Индии в конце XIX - начале XX веков, а также налогов на чай, взимаемых в пунктах пропуска приграничных таможен. Наряду с этим, проанализированы сведения из документов Национального архива Узбекистана о торговых путях, по которым ввозился чай из-за рубежа, видах чая, ценах и сортах зеленого чая.*

**Ключевые слова:** *Бухарский эмират, чай, архивные документы, Министерство финансов, таможня, торговые пути, таможенные пошлины.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Oʻrta Osiyoga chet eldan keltiriladigan tovarlar orasida eng xaridorgiriva talabchani choy hisoblangan. Shuning uchun boʻlsa kerak, Oʻzbekiston Milliy arxivi fondlari hujjatlari orasida choy savdosi bilan bogʻliq hujjatlar koʻlami kengroq. Bilamizki, choy oʻrtaosiyoliklar tomonidan sevib ichiladigan anʻanaviy va keng tarqalgan, kundalik milliy ichimlik hisoblangan va hanuz ahamiyatini saqlab kelmoqda. Choy Oʻrta Osiyo hududida yetishtirilmaydi, ammo unga boʻlgan ehtiyoj tufayli savdogarlar tomonidan kerakli miqdorda oʻlkaga yetkazib berilgan. Choy dastlabki davrlarda faqat Xitoydan toʻgʻridan-toʻgʻri Sharqiy Turkiston orqali keltirilgan boʻlsa, keyinchalik savdo yoʻllari oʻzgarib turgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari choy savdosi tarixiga nazar tashlasak, choyni Oʻrta Osiyoga, xususan Buxoro amirligiga olib kelish boʻyicha Oʻzbekiston Milliy arxivi fondlari hujjatlarida qimmatli maʼlumotlar mavjud [4; 5; 6; 7; 8; 9]. Buxoro amirligi va Kaspiyorti viloyatiga keltiriladigan choylardan bojxonadagi oʻtish punktlarida toʻlovlar yigʻilgan. Oʻrtaosiyoliklar, xususan Buxoro aholisi tomonidan qora va koʻk choylar isteʼmol qilingan. Hujjatlarda koʻk choyniing turli

xil navlari va nomlari mavjudligi, bojxonalardan olib o‘tishda navlariga qarab to‘lovlar yig‘ilganligi o‘z aksini topgan.

Rossiya imperiyasi Moliya Vazirligining Turkiston general-gubernatorligiga yubirilgan 1899-yil 28-dekabrda № 41261-sonli xatida Kaspiyorti viloyati va Buxoro xonligiga keltirilayotgan choylardan turlicha soliq olinayotgani uchun yirik choy firmalarining ko‘plab kelishmovchiliklariga sabab bo‘layotgani tufayli ular barcha choy navlariga bir xilda soliq miqdorini belgilashni talab qildilar, deyilgan. Mazkur yo‘llanma xati 1900-yil 12-yanvarda adresat tomonidan kirim qilingan. Unda Moliya Vazirligi Maxsus majlis o‘tkazgan va majlis jurnali nusxasini Turkiston general-gubernatoriga jo‘natib, undan Buxoro amiri bilan kelishib ko‘k choylarning barcha navlariga bir xilda har pudi uchun 12 rubl solib belgilashni kelishib olish so‘ralgan *[4: 1-1 or.]*.

Yig‘ilish jurnalida Rossiya imperiyasi Savdo va Manufaktura departamenti direktori, maxfiy maslahatchi V.I.Kovalevskiy raisligida Kaspiyorti viloyati va Buxoro xonligiga olib kelinadigan ko‘k choyga bojxona to‘lovlarini qayta ko‘rib chiqish masalasi bo‘yicha o‘tkazilganligi aks etgan *[4]*. Yig‘ilish jurnalining nusxasi yig‘ma jildga tikilgan va uning tepa qismida “Asl nusxada Moliya vazirligining “roziman” so‘zi yozilgan *[4: 5]*.”

Hujjatda eslatilishicha, 1894-yilda Buxoro xonligining Rossiya bojxona chizig‘iga kiritish bo‘yicha Kaspiyorti viloyati va Buxoro xonligiga olib kelinadigan chet el tovarlari uchun Moliya Vazirligi tomonidan maxsus tarif va qoidalar ishlab chiqilgan va bu hujjatlar 1894-yil 6-iyulda Rossiya imperiyasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan.

Bu tarifning 2 bo‘limida ko‘k choyni lunka va xalmuri deb ataladigan oliy navlarining har bir pudiga 14 r. 40 kop., navzugur va patta deb nomlanuvchi past navlarining har bir pudi uchun 6 r. dan boj solig‘i olish belgilangan edi *[4: 5 or.]*. Ko‘k choyga yuqorida ko‘rsatilgan miqdorda bojlar belgilanishiga Buxoro amirining iltimosnomasi, Buxoro amirligi va Zakaspiy viloyati aholisi Xitoy choylarini emas, balki Hindiston choylarini istemol qilishi asos qilib olingan.

Bu o‘rinda shuni eslatib o‘tish jo‘jki, Buxoro amirligi Rossiya bojxona chegarasiga kiritilgunga qadar, u yerga olib kelingan choy faqat tovar qiymatining

2,5% da zakot yigʻimi toʻlanardi, bu esa u yerda isteʼmol qilinadigan baʼzi choy navlarining eng yuqori narxi 40 rubl boʻlsa ham, bir pudga atigi 1 rubl toʻlangan.

Bundan tashqari, hujjatda Buxoro xonligining Hindiston bilan savdo aloqalari qisqarayotganligi, Buxoroda hind (peshavor) savdogarlarining mavqei pasayib ketganligi, choy bu huddudga ikki yoʻnalishda: birinchi yoʻnalish Peshavordan Kobul-Bamiyon, Tosh-Qoʻrgʻon va Kelif orqali, ikkinchi yoʻnalish Bombaydan dengiz orqali Bender-Abbosga, undan Eron orqali Mashhadga, u yerdan Ashxobod yoki Dushakka keltirilayotgan. Hind choyi Buxoro xonligiga Batum, Baku va Uzun-Ada (Krasnovodsk) orqali Ashxobod va Buxoroga oʻtkazilishi va choydan koʻrsatilgan bojxonalarda belgilangan miqdorda soliq olinishi eslatilgan *[4: 5-5 or.]*.

Shu oʻrinda eslatib oʻtish joizki, 1901 va 1911-yillarda koʻk choylarga navlaridan qatʼiy nazar har pudi uchun 12 rubldan boj soligʻi yigʻilishi belgilab qoʻyilgan *[2: 50; 3: 34]*. Qora choy uchun esa har pudi uchun 31 rub. 50 kop. soliq qayd etilgan *[3: 34]*. 1911-yilda koʻk choylarni qayerda yetishtirilgan boʻlishidan qatʼiy nazar, Kaspiyorti viloyati va Buxoro xonligiga Batum, Baku va Uzun-Ada (Krasnovodsk) orqali olib kelish va belgilagan bojxonalarda oʻrnatilgan miqdorda soliq toʻlash qatʼiy belgilab qoʻyilgan *[3: 36]*.

Tarixga nazar tashlansa, 1907 yil maʼlumotlariga koʻra, Buxoro bozori ehtiyojlari uchun har yili oʻrta hisobda 40-45 pud oliy navli "lunka" koʻk чойи yetkazib berilgan. Choy Shanxaydan dengiz orqali Botum, Boku, Krasnovodsk orqali Buxoroga yuborilgan *[9: 7]*.

Bayonnomada Buxoro xonligi va Kaspiyorti viloyatiga hind choylarini olib kelish uchun ishlab chiqilgan tarif va qoidalarda xitoy choylari eʼtiborga olinmaganligi qayd etilgan. Haqiqatda, 1895-yilda baʼzi chay savdogarlari Rossiya Moliya Vazirligiga murojaat qilib, Oʻrta Osiyoga xitoy choylarini keltirishga ruxsat berishlarini soʻragan, chunki Oʻrta Osiyoga koʻk choylarning katta qismi umumiy hind choylari nomi bilan keltirilayotgani, ular aslida xitoy plantatsiyalarida yetishtirilgan boʻlib, bu choylar Bombay orqali joʻnatilayotganligini qayd etishgan. Hujjatda xitoy choylari Shanxaydan Hindistonga, u yerdan Afgʻoniston va Oʻrta Osiyo hududlariga joʻnatilishi va

hanuzgacha, O'rta Osiyo hududlaridan arzon hind choylarini siqib chiqara olmaganligi eslatiladi. Bundan tashqari, Bombayga keltirilayotgan va u yerdan O'rta Osiyoga jo'natilayotgan xitoy choylari yashiklarda karvon yo'llari bilan olib kelingan va ular qayta qoplarga qoplangan va shu bilan xitoy choylarining tashqi ko'rinishi o'zgartirilgan [4: 6.].

1901 va 1911-yillardagi O'rta Osiyo bojxona tartiblari bo'yicha qonun-qoidalar to'plamlarida Rossiya imperiyasi Moliy Vazirligi bojxonalarda chegaradan o'tkazilayotgan choylarni tekshirish va o'tkazish haqida ham ko'rsatmalar berilgan. Unga ko'ra, choylar ichki choki mashinada tikilgan bo'z qoplarda solib, qopni yuqoridan bog'lovchi ipga bitta ichki plomba qo'yilgan bo'lishi kerak [2: 74; 3: 90]. Bu bilan tekshirilgan qopdagi choylarning ochilmaganligiga ishonchli bo'lishi uchun shu tartib joriy qilingan bo'lishi kerak.

Ma'lumotlarga ko'ra, Xitoydan ko'k choyni O'rta Osiyoga olib kelish katta foyda keltirgan, avvalom bor, Xonkauda rus mustamlakalarining mavqei va ta'sirini oshirgan bo'lsa, ikkinchidan, shu yo'l bilan Buxoroda hind savdogarlarining faoliyatini to'xtatishga yordam bergan. Boshqa tomondan rus savdo kamesozligiga ham katta daromad keltirgan. Ko'k choyni olib kelish bo'yicha qabul qilingan qoidalarga binoan, choyni Eron va Afg'oniston orqali, hamda Botu, Baku, Uzun-Ada orqali tranzit yo'li bilan Kaspiyorti viloyati va Buxoro amirligiga keltirilishiga ruxsat berilgan.

Olib kelingan choylarning naviga qarab quyidagicha boj solig'i belgilangan: oliy navli (lunka va xalmuri) choyi 14 r. 40 k., o'rta navli oq-quyriq yoki syan-te choyi 10 r. 20 k. va past navli (patta va nauzugur) choylatiga 6 r. [4: 6 or.-7].

Ammo choy navlariga qarab turlicha boj solig'i belgilangani rus choy savdogarlarining tushunmovchiliklariga sabab bo'lgan, shuning uchun yirik choy firmalari tariflarni qayta ko'rib chiqib, barcha choy navlariga bir xil boj solig'i belgilashni taklif qilishgan. Shundan so'ng Rossiya Moliya Vizirligi taklifi bilan Savdo va Manufaktur Departamenti raisligida maxsus yig'ilish chaqirilib, mazkur masalani ko'rib chiqishni taklif qilgan. Boj solig'i to'lashdagi noaniqliklarni bartaraf qilish maqsadida, choy navlarining oliy naviga qaysi choy tirlari kirishini

aniqlash va qolgan barcha choylarni past navlar katagoriyasiga kiritishni va ularga har pudu uchun 6 rub. soliq belgilashni taklif qilgan [4: 7].

Shundan soʻng 1896, 1897, 1898-yillarda Kavkaz, Oʻrta Osiyo chegarasi, Boku bojxona idoralari daftarlarida qayd etilgan narxlarni qiyoslab oʻrganib chiqib, Rossiyaning dengiz orqali savdosini qoʻllab-quvvatlash maqsadida koʻk choy navlaridan qatʻiy nazar, choyning har pudidan 12 rub.dan boj soligʻi olinishiga kelishilgan [4: 8 or.-9].

Hujjatda choy soligʻiga belgilangan past narxlar Buxoro amirining qatʻiy iltimosnomasi bilan bogʻliqligiga urgʻu berilgan. Amir ichimlik suvining yomonligi, uni qaynatmay ichilsa, kasallik keltirib chiqishini, arzon choylarga belgilangan past soliq aholining toʻlov qudratiga mos kelishini talab qilgan. Shuningdek, amaldagi narxni oʻzgartirishda albatta amirning roziligini eʻtiborga olish kerakligini qayd etgan [4: 9.]. Demak, Buxoro amiri fikrining ingobatga olinishi, hududga olib kelinayotgan choyning narxini belgilashda oʻziga xos taʻsirga egaligini koʻrish mumkin. Qolaversa, Buxoro amiri qanchalik siyosiy mavqei cheklangan boʻlishidan qatʻiy nazar, aholining xarid quvvatini ham inobatga olish lozimligini yuqori tashkilotlar oldida himoya qila olgan.

Koʻrib chiqilgan masala yuzasidan hamma koʻk choylarga navlaridan qatʻiy nazar, Buxoro xonligiga keltirilayotgan choylarning har pudiga 12 rub. miqdorida boj soligʻi belgilashga qaror qilingan [4: 9 or.-10].

Buxorodagi Rossiya imperiyasi Siyosiy agenti V.I.Ignatyev Buxoro bojxonasi va oʻzi tomonidan toʻplangan maʼlumotlarga asoslanib, 1900-yil 18-martda Turkiston general-gubernatori, general-leytenant Ivanov Nikolay Aleksandrovichga “Buxoro xonligida choy savdosi toʻgʻrisida” tayyorlagan maʼlumotnomani yoʻllagan. Maktubda Buxoro shahrida isteʼmol qilinayotgan hamma koʻk choylarni peshavorlik savdogarlar olib kelayotganligi, bu savdoda ikkita afgʻon va ikki-uchta eronlik firmalar qatnashayotganligi eʻtirof qilingan. Peshavorliklar oliy navli choylarni oʻzlarining Shanxaydagi “Kerimbaxsh” Komission uylari orqali sotib olishganligi qayd etilgan [4: 14].

1897-1899 yillarda Xitoy va Hindistondan Buxoro bojxonasi orqali quyidagi miqdordagi choylar keltirilganligi qayd etilgan: Xitoydan oliy navli “lunka” choyi

1897-yil 34.148 pud, 1898-yil 38.361 pud, 1899-yil 51.352 pud, Hindistondan past navli choylar 1897-yil 15.342 pud, 1898-yil 14.139 pud, 1899-y. 14.007 pud keltirilgan [4: 15].

1891-yilda Bombaydan Afg'oniston orqali 1.760.000 rubllik 44.000 pud, Eron orqali 1.667.290 rubllik 53.495 pud choy olib kelingan [1: 107].

Yuqoridagi ko'rsatkichlar qiyosiy taqqoslansa, 1891-yilga nisbatan oxirgi o'n yilga yaqin vaqtda Buxoroga keltiriladigan choy miqdori kamayganligi ma'lum bo'ladi. Bu ko'rsatkichga qarab, Buxoro aholisining choyga ehtiyoji qisqargan degan xulosa chiqarish kerak emas, balki choyni rus savdogarlari ham olib kirayotganligi ehtimoldan xoli emas.

1900-yil 10-iyunda Turkiston General-gubernatoriga yozilgan xatda Rossiya imperiyasi Moliya Vazirligi tomonidan Kaspiyorti viloyati va Buxoro xonligiga keltirilayotgan ko'k choyga bir xildagi bojxona solig'ini, ya'ni har pudi uchun 12 rubl belgilash masalasi ko'ratilgan. Turkiston general-gubernatorligi tomonidan berilgan xabarda, Buxoro amiri bilan shu masalada muzokora olib borilganda, bu boj solig'ini joriy qilishda e'tirozi yo'qligi, ammo bojxona solig'ini bir pudiga 9 rublgacha, yoki juda bo'lmaganda 10 rublgacha belgilashni taklif qilgan. Chunki kam miqdorda bo'lsada, bojxona solig'ining ko'tarilishi xonlikning kambag'al aholisiga og'ir ta'sir qilishini ma'lum qilgan [4: 19].

Hujjatda shu narsa e'tirof qilinadiki, Buxoroga past navli choylarga nisbatan oliy navli choylar ko'proq keltirilgan. Buxoroga 1898-yilda 178.1 ming pud ko'k choy keltirilgan. Olib kelingan choylardan 2.392 ming rubl. boj olingan, u paytda o'rtacha bojxona solig'i choyni har pudiga 13 rub. 50 kop. qilib belgilangan edi.

Shunga qaramasdan Botum, Baku va Krasnovodsk orqali dengiz savdosi bilan shug'ullanayotgan rus savdogarlari manfaatlarini inobatga olib, dengiz savdosini rus savdogarlari qo'lida saqlab qolish va uni rivojlantirish maqsadida choyga belgilangan bojxona solig'ini 12 rublgacha qisqartirish taklif qilingan.

Hujjatda oxirgi uch yilda Buxoroga o'rtacha 176.8 ming pud turli navlardagi ko'k choylar keltirilganligi qayd etib, agarda bojxona soliqlarini 13 rub. 50 kop. o'rniga 12 rub. qilib belgilagan taqdirda Moliya Vazirligi 265 ming rub. atrofida zarar ko'rgan bo'lishini e'tirof qilayabdi. Agarda loyihalashtirilayotgan bojxona

solig'ini 10 rubl. qilib belgilangan taqdirda Moliya Vazirligi 350 ming rub. yon bergan bo'lar edi. Oqibatda xazina yiliga 600 ming rubl. zarar ko'rgan bo'lar edi, degan hisob-kitoblarni o'rtaga tashlagan *[4: 19 or.]*. Shuni e'tiborga olish kerakki, Buxoroga so'nggi uch yilda jami 530.5 ming pud ko'k choy olib kelingan, yillar kesimida quyidagicha 1897 yilda 145.1 ming pud, 1898 yilda 178.1 ming pud, 1899 yilda 207.3 ming pud, o'rtacha har yili 176.5 ming pud choy keltirilgan *[4: 19 or.]*.

Buxoro amirining ko'k choyga solinadigan soliqni iloji boricha 9 rub, juda bo'lmaganda 10 rub. qilib belgilashda xalqning yashash sharoiti va xarid quvvatini o'ylab, xalqi manfaatlarini inobatga olayabdi. Moliya Vazirligi esa, bojxona soliqlari miqdorini eng kamida 12 rubl. qilib belgilash orqali Rossiya xazinasini boyitish yo'lidan borayabdi. Bu masalani hal qilish, Moliya Vaziri, Stats-sekretar bojxona solig'ini 12 rubl qilib belgilash masalasida yana Buxoro amiri bilan murosaga kelishga chaqirgan. Rossiya Moliya Vazirligi Buxoro xalqi manfaatlarini inobatga olmagan.

Yuqorida choy savdosi bilan bog'liq hujjatlar atroflicha o'rganib chiqilgach, shu narsa ma'lum bo'ladiki, xorijdan keltiriladigan ko'k choylarga to'lanadigan boj soliqlari yuqori tashkilotlarda atroflicha o'rganib chiqilib, kerak bo'lsa, Buxoro amirining fikri ham inobatga olingan. Buxoro amirligiga keltiriladigan ko'k choylarga navlaridan qat'iy nazar bir xil boj belgilanishi uzoq muhokamalar natijasida hal qilingan. Taklif qilingan ko'k choylarning barcha navlariga har pudi uchun 12 rub. boj belgilanishi va uni muhokama uchun taklif qilingan edi. Muhokamalar natijasida Rossiya Moliya vazirligi Harbiy vazirlik bilan kelishuviga asosan amalda bo'lib kelgan Buxoro amirligiga olib kelinadigan xorij tovarlaridan, xususan Qonun Qoidalar to'plamining 2 modda "j" bandiga asosan ko'k choylarning hamma navlariga pudi uchun 12 rubl. belgilansin, deb e'tirof qilingan *[2: 50]*.

Demak, choy Buxoro amirligi aholisining asosiy kundalik ichimligi bo'lib, choyga bo'lgan ehtiyoj katta edi. Xorijdan keltirilayotgan choylarga belgilanayotgan bojxona to'lovlari hamma tovarlardan olingani kabi tovar qiymatining 2,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1894 yilda amirlikning Rossiya

chegara chizig‘iga kiritilishi va rus bojxona tizimlarining faoliyati natijasida ko‘k choydan olinadigan zakot solig‘i choylarning navlariga qarab to‘langanligi ochiqlandi. 1900 yildan boshlab ko‘k choylarning navlaridan qat‘iy nazar, choydan chegaradan o‘tish joyida 12 rublan soliq yig‘ilishiga kelishilgan va bu to‘lov miqdori O‘rta Osiyo bojxona tartiblari bo‘yicha qonun-qoidalar to‘plamlarida ham e‘lon qilingan.

### **Manbalar va adabiyotlar / Источники и литература / References**

1. Губаревич-Радобыльский А.Ф. Значение Туркестана в торговле России с сопредельными странами Азии // Материалы для изучения хлопководства. Вып. II. – СПб., 1912. – 239 с.
2. Сборник узаконений и распоряжений по таможенному устройству в Средней Азии. Изд-е Департамента Таможенных Сборов. – СПб., 1901. – 224 с.
3. Сборник узаконений и распоряжений по таможенной части в Средней Азии по 1 января 1911 г. Типография отд.корп. погран. Стражи. – СПб., 1911. – 250 с.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi. I-2–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 66–ish. 23 v.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. I-1–jamg‘arma, 16–ro‘yxat, 2076–ish. – 193 v.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi. I-1–jamg‘arma, 16–ro‘yxat, 1949–ish. – 231 v.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. I-1–jamg‘arma, 16–ro‘yxat, 2158–ish. – 274 v.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi. I-1–jamg‘arma, 16–ro‘yxat, 1839–ish. – 229 v.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi. I-2–jamg‘arma, 1–ro‘yxat, 210–ish. – 7 v.

### **XVI–XIX ASR MARKAZIY OSIYO TARIXI: MANBALAR VA TADQIQOTLAR**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

**Daminova Go‘zal Vaydulla qizi,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi*

**Daminova Nargiza Vaydulla qizi**

**Alimova R.R**

*Arxiv hujjatlarida Buxoro amirligida choy savdosi xususida..... 230*

**Daminova G.V., Daminova N.V**

*XVI–XIX asr Markaziy osiyo tarixi: manbalar va tadqiqotlar..... 238*

**Isomiddinova S.J.**

*Shayboniylar davri tarixini o'rganishga oid manbalar haqida ..... Ошибка!  
Закладка не определена.245*

***IV sho'ba | Секция IV | Section IV***

**Любичанковский С.В**

*Образы Центральной Азии в воспоминаниях генерал-майора Н.Г.  
Залесова (середина XIX века)..... 251*

**Boltaboyev M.A.**

*Farg'ona vodiysida hunarmandchilik an'analari (XIX asr oxiri – XX asr  
boshlarida)..... 256*

**Ismoilova P.**

*The banking system of the Turkestan region (late 19th – early 20th century): in  
contemporary uzbek historiography ..... 262*

**Isomiddinov E.D.**

*1917 yil fevral inqilobining Turkiston sanoat korxonalariga ta'siri..... 268*

**Turg'unov Sh.A.**

*Farg'ona viloyatidagi sanoat kporxonalari turlari va faoliyatiga doir fikr  
mulohazalar(Farg'ona viloyatida 1950-1980-yillarda vaqtli matbuotda e'lon  
qilingan maqolalar tahlili asosida) ..... Ошибка! Закладка не определена.*

**Kupaysinov I.A.**

*Farg'ona oblastida elektr transporti (trolleybus)ni joriy etilishi..... 281*

**Хўжамов М**